

**MANZIKERT (MANAZKERT) JANGINING SALJUQIY TURKLAR VA
VIZANTIYA MUNOSABATLARIDAGI AHAMIYATI**

Xidirova Dilnoza Narbayevna¹

¹*Samarqand Davlat Universiteti
Tarix fakulteti 1-kurs magistri*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 22.01.2025

Revised: 23.01.2025

Accepted: 24.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

Alp Arslon, Roman IV

Diogen, Vizantiya imperiyasi, Saljuqiy turklar, Manzikert, Kichik Osiyo, Bolqon, Yaqin Sharq, Mush viloyati, Dandanakon janggi, Ozarbayjon, turkmanlar, bey, Ibn Havqal, O'g'izlar, pecheneglar..

Ushbu maqolada Saljuqiy turklar va Vizantiya imperiyasining qisqacha tarixi, Saljuqiy turklar va Vizantiya imperiyasining XI asrdagi siyosiy-iqtisodiy holati, bu ikki davlatning to'qnashuviga olib kelgan omillar va Manzikert jangida Vizantiya uchragan mag'lubiyat sabablari , jangning mintaqaga ta'siri haqida ma'lumot beriladi.

KIRISH. Har yili 26-avgust kuni butun musulmon olami, ayniqsa turklar, Saljuqiy turklar qo'mondoni Sulton Alp Arslonning 1071 yilda Manzikert jangida Vizantiya imperatori Roman IV ustidan qozongan g'alabasini yodga olishadi. Jang bo'lib o'tgan Manzikert bugungi kunda Turkiyaning sharqidagi Mush viloyatida joylashgan. Hittin va Ayn Jalut kabi tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan janglar qatorida Manzikert jangi ham juda muhim bo'lgan. Uning natijalari mintaqaga bir necha asrlar davomida ta'sir ko'rsatgan.²

² <https://www.dailysabah.com> , Amir Sulaymon maqolasi 2019-yil 27-avgust.

Yaqin Sharq , Yevropa hayotiga ta'sir etuvchi ushbu jangga bat afsil to'xtalishdan avval, Saljuqiy turklar tarixiga biroz to'xtalib o'tsak.

Taniqli tilshunos olim qozoqboy Mahmudovning fikricha, saljuqiylar ham Alptakin singari O`g`uz qabilasining Qiniq urug`iga mansub bo`lganlar. X asrda yashagan arab geografi Ibn Havqalning bergen ma`lumotlariga qaraganda, islom dinini qabul qilgan mingga yaqin turk oilasi Sharqdan Forob, Kenjit va Shosh o`rtasidagi tumanga, ya`ni hozirgi Chimkentning janubi-garbiga ko`chib kelgan.

Sirdaryoning quyi oqimida barpo bo`lgan o`g`uz davlatlarining yobg`usi Saljuqbek (Mahmud Qoshg`ariyning asarida Seljukbek) saljuqiylar xonadoning asoschisi edi. Saljuqbek nabiralaridan Tog`rulbek, Chag`irbek va Shakarbek saljuqiylar davlatini sultanat darajasida ko`tarishda katta xizmat qildilar. O`g`uzlar nafaqat o`zbeklar va turkmanlarning, balki hozirgi Turkiya turklari, Iroq turkmanlari, Eron turkmanlari, Gagauzlar, Ozarbayjon xalqining ham tashkil topishida yetakchi etnik guruh bo`lganlar.

Saljuqiylar dastlab quyi Sirdaryo hududidagi Jand tumanlari atrofida chorvachilik qilib ko`chib yurganlar. Ammo bu yerning hokimi Shohmalik bilan urushib qolib, Zarafshon daryosining o`ng qirg`ogiga – Nur (Nurota) tumaniga ko`chib ketishga majbur bo`lganlar. Bu tuman hududiga ko`chib kelishiga Somoniylar ruxsat berганlar.

Ammo XI asrning birinchi yarmida turkman – saljuqiylarning ahvoli juda og`irlashib qoldi. Chunki Qoraxoniylar va Saljuqiylar odatiy turmush tarzi uchun katta-katta yerlar kerak bo`lganligi sababli ziddiyatlari toboro kuchaya boshlagan.

To`g`rulbek boshliq saljuqiylar Zarafshon vodiysini tashlab ketishga majbur bo`ladilar. Ular Mahmud G`aznaviyning o`g`li Ma`sudbekka murojaat qilib o`zlariga Saraxs, Marv, Abiverg, Niso va Farova hududlarida ko`chib yurishga rozilik so`radilar. Chunki bu tumanlar chorva mollari uchun juda qulay joylar edi.

G`aznaviyalar hukumati To`g`rulbek boshehiligidagi turkmanlarning iltimoslarini qondirib 1035- yilda Nishopurda imzolangan shartnomaga ko`ra Niso, Farova, Dehiston tumanlarini ajratib berdilar. Ammo bu safar ham Saljuqiy turkmanlar dehqonchilik bilan shug`ullanadigan mahalliy o`troq xalq bilan umumiyl til topa olmadilar. Ular og`izda o`troq aholi bilan tinch yashash tarafdlari bo`lsa-da, amalda G`aznaviyalar hukumatidan yangi-yangi yarlarni talab qilishda davom ettirdilar. Xususan ular Marv va Saraxs yerlarini qa`tiylik bilan talab qildilar.

XI asr 1- asr 30-yillarida ham Saljuqiy turklar G`aznaviyalar davlati tarkibida edilar. Saljuqiylarning G`aznaviyalar davlati hukmronligi ostida bo`lgan Xurosonni egallashiga va bu hududda o`rnashib, davlat tuzishiga imkon yaratgan mashhur Dandanakan jangidan

(1040 yil 23 may) keyingi yillarda saljuqiylarning kengayishiga qaratilgan harakatlar asosan g'arbiy mintaqalarga qaratildi.³

Shu tariqa Saljuqiylarning janubga va g'arbgaga yuzlanishi kuchayadi.

Biz yuqorida Manzikert jangining faqat bir ishtirokchisi- Saljuqiylar tarixiga qisqacha to'xtaldik, endi siz bilan ikkinchi taraf Vizantiya imperiyasining mazkur davrdagi holatiga ham ozgina to'xtalib o'tsak.

Vizantiya imperiyasi yoki Sharqiy Rim imperiyasi (lotincha: Imperium Romanum IV - XV asrlarda mavjud bo'lган, o'z vaqtida uchta qit'a Yevropa, Osiyo, Afrikaning bir qism hududlarini qamrab olgan yirik davlat bo'lган.Lekin imperiya biz ko'rib o'tayotgan davrda hududlari ancha qisqargan edi.⁴



Dastlab bu davlat «Rim imperiyasi» deb nomlangan lekin keyinchalik bu nom bora-bora yo'qolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom yuritila boshladи (imperiyaning poytaxti qadimgi vaqtida Vizantiya deb atalgan bo'lib, 330 yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol deb nom bergen edi). Ba'zi olimlar xuddi shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb hisoblaydilar. Lekin tarixchilarning ko'philigi Vizantiya imperiyasi

³ Ali Sevim, Malazgirt meydan savaşı, Ankara 2021

⁴ <https://mapsontheweb.zoom-maps.com/2024-yil> 2- yanvar.

395 yilda, ya'ni Feodosiy I o'lgach, imperiya uning o'g'illari o'rtaida taqsimlanib, sharqiy yarmi Konstantinopol shahri bilan birga Arkadiyga o'tgan vaqtida tuzilgan deb hisoblaydi.⁵

Imperiya VI asrda o'z qudrati cho'qqisiga chiqqan, imperator Yustinian I (527-565) davrida o'zining "oltin davrini" boshdan kechirgan edi. XI asrga kelib imperiya bir qancha muommolarni boshdan kechirayotgan edi, ichki muommolardan tashqari xususan imperiyani eng ko'p tashvishga solgan muommolardan biri bu imperiyaga pecheneglarning tinimsiz hujumlari bo'layotgan edi. Imperiya bu hujumlarni to'xtatish uchun pecheneglarga bergen bir qancha savdo imtiyozlari va to'lov -hadyalar ham ularning tahdidlarini to'xtata olmadi, xususan 1043-yilda pecheneglarning katta miqdorda imperiya hududlariga kirib kelishi sodir bo'ldi. Pecheneglar guruh boshliqlaridan biri bo'lgan Kegen Konstantinopolda cho'qintirildi, unga Patrikiy unvoni berilib, Dunaydagi uchta qal'aga qo'mondonlik qilish topshirildi.⁶

Bu davrda imperator Konstantinos vafotidan keyin Vizantiya saroyidagi turli guruhlarning boshqaruvda hukmronlik qilish uchun bir-biriga qarshi olib borgan kurashi va davlat boshqaruviga tasodifiy aralashuvlar natijasida imperator viloyatlari va ayniqsa qo'shin e'tibordan chetda qoldi. Qo'shining ahyoli shunchalik og'ir ediki, Anado'li bo'y lab tarqalib ketgan Vizantiya qo'shirlari ehtiyojlari qondirilmagani uchun oziq-ovqat va kiyim-kechak topish uchun tez-tez atrofdagi shahar va qishloqlarni talon-taroj qildilar.⁷

Bosqinchilarga bunday ehtiromlar va muommoni bu tarzda hal qilishga harakat ham imperiyaning holatidan dalolat berar edi, ya'nikim imperiya bu davrda ancha zaiflashgan va o'z hududlarini yo'qotayotgan edi. Imperiyaning o'z hududlarini himoya qilishga harakati va sharqdan turli ko'chmanchi qabilalarning bostirib kirishi alal oqibat biz ko'rib chiqayotgan Manzikert jangi sodir bo'ldi.

Albatta Manzikert janggi Saljuqiylar va Vizantiya imperiyasi o'rtaсидаги dastlabki to'qnashuv emasdi, undan ham avval Saljuqiylar va Vizantiya imperiyasi o'rtaida bir necha kichik to'qnashuvlar bo'lib o'tgan edi, ammo Manzikert janggi nafaqat Saljuqiylar va Vizantiya imperiyasi o'rtaсидаги munosabatlarni yani pog'onaga ko'tardi balki Yaqin Sharq , O'rta Sharq , Bolqon, Yevropa davlatlari hayotiga ham katta o'zgarishlar olib keldi. Maqolamizda ushbu jarayonlarga batafsil to'xtalib o'tamiz.

⁵ VI-XI ASRLARDA VIZANTIYA IMPERIYASI, Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'lining SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH nomli xalqaro ilmiy online konferensiyadagi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'naliishi talabalarini maqolasi.

⁶ THE CAMBRIDGE HISTORY OF THE BYZANTINE EMPIRE by JONATHAN SHEPARD.

Cambridge University Press 2008, 674-b

⁷ Yusuf Ayönü Selçuklular ve Bizans. Ankara 2021

Vizantiya taxtiga o'tirgan Roman IV Diogen birinchi bo'lib armiyani tartibga solishga harakat qildi va Anadolu tarafidagi Saljuqiylar yurishiga chek qo'yish uchun uyushtiradigan yurishga tayyorgarlik ko'radi. Vizantiya imperiyasida bu voqealar bo'layotgan vaqtida Gruziya tomonida sodir bo'lган voqealar tufayli Saljuqiy Sulton Alparslon bu hududga yurish uyushtirdi va katta hududlarni egalladi.

Vizantiya imperatori Roman IV Diogen saljuqiylarning kundan-kunga kuchayib borayotgan bosqinlarini to'xtatish uchun uyushtiradigan ekspeditsiya uchun Anadoludan, xususan o'zining tug'ilib o'sgan shahri Kayseri viloyatidan ko'p sonli askar to'pladi, bundan tashqari Bolqon xalqlari, Pecheneglar ham ma'lum miqdorda kuchlar yetkazib berdi. Bulardan tashqari u franklar, nemislar, skandinaviyaliklar va italyan normanlaridan ham yollanma askarlarni yollagan edi. Vizantiya imperatorlarining uzoq vaqt davomida shaxsan armiyaga bosh bo'lib yurishlarga bormaganligini hisobga olib, Roman IV Diogenning bu harakati Anadoludagi Saljuqiy turklar faoliyatining Vizantiya uchun qanchalik katta xavf tug'dirganining isbotidir.⁸

Roman IV Diogen 1068-yil 13-martda turli xalqlardan shosha-pisha to'plangan qo'shin bilan yurishga chiqdi. Roman IV Diogen Kilikiya hududini vayron qilgan dushmanlariga hujum qilish uchun birinchi navbatda Suriya tomon yuzlandi. Biroq Kayseriga yetib kelmasidan oldin saljuqiylar bo'linmasi Niksarni egallab, talon-taroj qilgani haqida xabar oladi. Shundan so'ng imperator yo'nalishini o'zgartirib, Sivasga keldi va Divriği yaqinida uchragan urushda turklarni chekinishga majbur qildi. Ushbu birinchi muvaffaqiyatdan keyin qaytib, Roman IV Diogen Goksun, Marash va Dulukdan o'tib Shimoliy Suriyaga kirdi. Halab va uning atrofiga jiddiy zarar etkazgandan so'ng, Umurtekin ismli saljuqiylar tomonidan himoya qilingan Shimoliy Suriyaning muhim qal'alaridan biri bo'lgan Manbijni egalladi. Ayni paytda Hano'g'li Horun va Arab amiri Mahmud o'zlarining birlashgan qo'shnulari bilan Halab atrofidagi Vizantiya birligini mag'lub etdilar. Buni eshitgan imperator darhol mintaqaga keldi. Har ikki tomon ham katta yo'qotishlarga uchradi. Urushdan keyin Horun tomonidan ilgari bosib olingan Artax va Imm qal'alari yana Vizantiya qo'liga o'tdi.

Shundan so'ng imperator poytaxtga qaytishga chog'landi, chunki uning askarlari kurashlar natijasida charchagan va oziq-ovqat taqchillagini boshdan kechirgan. Ayni paytda Afshin va Ahmetshoh boshchiligidagi Saljuqiy kuchlari Sakariya havzasini tomon yo'l oldi va Istanbul-Kilikiya yo'lida, bugungi Emirdag' yaqinida joylashgan Amūriyye (Amorion)

⁸ Yusuf Ayönü Selçuklular ve Bizans. Ankara 2021

qal'asini egallab, vayron qildi. Qisqasi bu safar ham Roman IV Diogen Saljuqiylargaga qarshi o'zi xohlagan natijaga erisha olmagan edi.

Saljuqiylarning bosqinlarini to'xtatish uchun o'tkazgan ikki yurishida Roman IV Diogen aniq muvaffaqiyatga erisha olmasa ham, o'ziga bo'lgan ishonchni davom ettirdi va Onado'lini turklardan butunlay tozalash ishonchi bilan tayyorgarlik ko'rар edi. Saljuqiylar sultonining asosiy maqsadi Misrdagi shia Fotimiylar davlati edi, u tashkil topganidan beri sunniy islom olamiga qarshi edi. Qolaversa, ayni shu damda Fotimiy vazir Nasriddin Hamdam ham Alparslonni Misrni egallashga chorlayotgan edi.

Misrga tezroq yetib borishni istagan Alparslon vaqtini boy bermay yo'lga chiqdi. Qo'shin Damashq tomon harakatlanayotgan paytda, Vizantiya imperatori Roman IV Diogen tomonidan yuborilgan elchi sulton huzuriga kelib, imperatorning Manbij, Erjish va Manzikertning qaytarilishini xohlayotganini, aks holda katta qo'shin bilan harakatga kirishishini bildirdi. Alparslon bu iltimosdan jahli chiqib, elchini qattiq javob bilan qaytarib yubordi. Ammo Vizantiya imperatorining olomon qo'shin bilan Erzurum tomon yurganligi haqidagi xabarni eshitgach, Alparslon o'g'li qo'mondonligida Halabdagi qo'shinlarining bir qismini qoldirib, amir Aytekin va Halab amiri Mahmudni qo'mondonlikka tayinlagandan so'ng Sharqiy Anado'li tomon yo'l oldi.

Vizantiya elchisi orqali imperator Roman IV Diogenning safarga chiqishini bilgan Sulton Alp Arslonning Suriyani tezda tark etib, Diyorbakir hududi orqali Ahlatga yetib kelganini ko'rdik. Ayni paytda Erbasgan ortidan qaytgan va Vizantiya imperatorining Anadoludagi harbiy amaliyotlari haqida ma'lumot to'plagan Amir Afshin o'z kuchlari bilan Ahlatda uni kutib turardi. Sulton xotini va vaziri Nizomulmulkni xazinalari bilan Hamadonga yuborib, tezda uning oldiga askar yuborishni buyurdi. 4 ming xos askaridan tashqari, sultonga o'z zaxira otlari bilan Anadolu chegaralariga bostirib kelgan Saljuqiy amirlari va beklari qo'mondonligidagi 40 ming bosqinchi qo'shin hamda 10 mingga yaqin ixtiyoriy otliq qo'shin hamrohlik qildi.

200 mingga yaqin va turli millatlardan tashkil topganligi uchun birdamlikdan mahrum bo'lgan Vizantiya qo'shinidan farqli o'laroq, saljuqiylar qo'shini atigi 50-60 ming va umuman otlig' qo'shinlardan iborat bo'lgan "Turkchilik va jihad" g'oyalari bilan qurollangan edi. Alp Arslonning yonida Sav Tigin, Sunduk, Afshin, Gevherayin, Ay Tigin, Tarangog'lu, Ahmedshah, Dilmacho'g'li Mehmed, Duduo'g'li kabi tajribali va malakali amirlar bor edi, ularning aksariyati Anadoluda doimiy bosqinlar uyushtirgan. Ahlatdan

yo‘lga chiqib, qo‘shinida suv taqchilligi bo‘lmasligini ta’minlash maqsadida Malazgirt va Ahlat o‘rtasidagi Rahve tekisligiga keldi.⁹

Saljuqiylar qo‘shini Vizantiya qo‘shiniga qaraganda kamroq bo‘lgani uchun Alparslon darhol hal qiluvchi jangga kirishishni istamadi. Sulton o‘z kuchlarini to‘plashga vaqt orttirish, boshqa tomondan esa Vizantiya qo‘shinining ahvolini yaqindan ko‘rish maqsadida -Abbosiyilar xalifasining yetakchi kishilaridan biri G‘anim Ibnul-Mahlebon saljuqiy amiri Savtekinni ham imperatorga elchi qilib yubordi. Sulton bu elchilik delegatsiyasi orqali Diogenga o‘z yurtiga qaytishi kerakligini, o‘zi ham qaytishini va ular o‘rtasidagi tinchlik shartnomasi moddalarini xalifa orqali hal qilish mumkinligini ma’lum qildi. Biroq, o‘z qo‘shinining ko‘pligiga ishongan Roman IV Diogen bu taklifni darhol rad etdi.

Tinchlik taklifining rad etilganini bilgan Alparslon muqarrar urushga tayyorgarlikni yakunlashni buyurdi. Bu orada sultonning imomi Buxorolik Abu Nasr Muhammad: "Ey sulton! Sen Islom yo‘lida jihod qilyapsan, buning uchun Alloh boshqa dinlarga g‘alaba va’da qilgan. Juma kuni butun musulmonlar duo qilganda urushga chiqasan. Siz minbarlarga chiqib: "Alloh taolo sizlarning nomingizdan g‘alabani yozishiga ishonaman", deb uni rag‘batlantirayotgan edi. Qolaversa, saljuqiylar sultoni Alparslonning urush boshlanishi oldidan juma namozi vaqtida barcha askarlarini yig‘ib qilgan nutqi bu askarlar ruhiyatini eng yuqori cho‘qqisiga olib chiqdi.

26-avgust, juma kuni har ikki qo‘shin Malazgirt va Ahlat o‘rtasidagi Rahva tekisligida bir-biriga to‘qnash keldi. Sulton Alparslon o‘zining jango var taktikasiga ko‘ra kuchlarining bir qismini pistirmaga joylashtirdi va o‘zi ham markaz chizig‘ida qatnashdi. Shunday qilib, dastlab yarim doira ichida o‘ralgan Vizantiya qo‘shini, keyin pistirmadagi askarlarning hujumi bilan to‘liq qurshab olinadi. Nihoyat urush boshlanib, ikki qo‘shin bir-biriga zo‘ravonlik bilan hujum qilganda, Alp Arslon boshchiligidagi saljuqiy otliqlari Vizantiya qo‘shinini hujumga chorlash maqsadida Diogen turgan markaz chizig‘iga soxta hujum uyushtirdilar.

Pistirmada turgan kuchlardan bexabar imperator soni juda oz bo‘lgan Saljuqiy qo‘shinini butunlay yo‘q qilish uchun qarshi hujumga o‘tadi va ular amalga oshirgan reja asosida sekin-asta chekinayotgan saljuqiy askarlariga ergasha boshlaydi. Shunday qilib, Alparslon xohlaganidek, imperator o‘z qarorgohidan uzoqroqqa ketdi va saljuqiy pistirmalari joylashgan safga o‘tdi. Aniq natijaga erishish uchun keng ko‘lamli hujum boshlash vaqt

⁹ Ali Sevim, Malazgirt meydan savaşı, Ankara 2021

keldi, deb o'ylagan Alparslon pistirmada turgan askarlariga hujum qilishni buyurdi. Pistirmada turgan saljuqiy otliq qo'shinlari Vizantiya qo'shiniga hujum qilganda, Alparslon boshchiligidagi markaziy chiziq chekinishni to'xtatib, qarshi hujumga o'tadi. Aynan shu vaqtida sarosimaga tushib, jangovar tartiblari buzilgan Vizantiya qo'shini qanotidagi pecheneg va boshqa qabilalar otliqlari Vizantiya safini tark etib, saljuqiylar safiga qo'shiladilar. O'z xatosini tushungan imperator qo'shinini qarorgohiga olib chiqib, qayta toplash uchun ko'p harakat qildi, ammo bu urinishi muvaffaqiyatsizlikka uchradi.¹⁰

Imperator armiyasidagi parokandalik imperiya qo'shining mag'lubiyatida asosiy rol o'ynagan, xususan imperiyaning zahira qo'shinlari umuman jangga kirmasdan zahira qo'shinlari qo'mondoni tomonidan imperator o'lganligi e'lon qilinadi, bu xabalar ortidan Vizantiyaliklar bilan ayniqsa diniy masalalarda katta ixtilosga ega bo'lgan armanlar ham jang maydonini tark etdilar.

Imperator jangda yarador bo'ldi va asirga olinib, sulton Alparslon huzuriga olib kelindi. Vizantiya, ossuriya, arman va islom manbalari, Roman IV Diogen bilan birga bo'lgan vaqtlarida unga ijobjiy munosabatda bo'lganligini ta'kidlaydi. Tomonlar o'rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan kelishuvdan so'ng, Saljuqiy sulton o'z yurtiga qaytdi, imperator esa Alparslon unga hamrohlik qilish uchun bergen askarlar bilan 1071 yil 3 sentyabrda Istanbulga yo'l oldi.

Ammo poytaxtda tax tuchun urushlar boshlangan edi, Roman IV Diogen o'z hokimiyatini tiklay olmaydi. Barcha islom davlatlarini bosib olish g'oyasi bilan yo'lga chiqqan Vizantiya imperatori qo'lga olinib, qo'shining katta qismi yo'q qilinganini hisobga olsak, Manzikert jangi Vizantiya uchun to'liq mag'lubiyat edi.

Manzikert jangi Saljuqiy-Vizantiya munosabatlarida burilish nuqtasidir. Bu g'alabadan keyin Roman IV Diogen va Alp Arslon o'rtasida tuzilgan kelishuvga ko'ra, Vizantiya imperiyasi har yili soliq to'laydi va kerak bo'lganda qo'shin to'plab berish kerak edi. Alparslon va Roman IV Diogen o'rtasida tuzilgan kelishuv bilan Vizantiya imperiyasi Saljuqiylar davlatining vassaliga aylandi. Vizantiya taxtining o'zgarishi shartnomani bekor qilgan bo'lsada, mag'lubiyatdan kelib chiqqan sharmandalikni yanada kuchaytirmaslik uchun yangi ma'muriyatning bu shartnomani tan olmagani Vizantiyaga qimmatroq tushdi.

Saljuqiylar sultonining buyrug'i bilan harakatga kelgan saljuqiylar qisqa vaqt ichida Vizantiya yerlarini egallab olishdi. Biroq shu yerda shuni ham aytish kerakki, Manzikert jangi Vizantiya imperiyasining so'nggi to'rt asrlik tarixida turklar bilan bo'lgan birinchi va

¹⁰ Yusuf Ayönü Selçuklular ve Bizans. Ankara 2021

oxirgi urush emas. Tomonlar o‘rtasida 1453 yilgacha minglab katta-kichik to‘qnashuvlar bo‘lgan. Bu g’alaba so‘nggi davrdagi asosiy sindirish nuqtalaridan biri xolos.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Ali Sevim, Malazgirt meydan savaşı, Ankara 2021
2. Анна Комнина. "Алексиада" Москва. 1965
3. Yusuf Ayönü Selçuklular ve Bizans, Ankara 2021
4. THE CAMBRIDGE HISTORY OF THE BYZANTINE EMPIRE by JONATHAN SHEPARD. Cambridge University Press 2008
5. Salim Kosa, Turkiya Saljuqiylar tarixi. Ankara 2020
6. VI–XI ASRLARDA VIZANTIYA IMPERIYASI, Sattorov Firdavs Ulug’bek o‘g’lining SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH nomli xalqaro ilmiy online konferensiyadagi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo’nalishi talabalari maqolasi

Internet manbalari

1. <https://www.dailysabah.com>
2. <https://mapsontheweb.zoom-maps.com>